

Modern education and development
XORAZM XALQ RAQSLARINING SHAKLLANISHIDA USTOZ-
SAN'ATKORLARNING O'RNI VA FAOLIYATI

*O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
Urganch filiali "Lazgi" bo'limi katta ilmiy xodimi
Xudayberganova To'xtajon Maxsud qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzoq o'tmishi va tarixiga ega bo'lgan Xorazm qadimiy raqsining shakllanish tarixi, qadimiy diniy udumlar, qadimdan shakllanib kelgan raqs harakatlari, hamda bu raqsni ijro qilgan raqqoslar haqida ma'lumotlar aks ettirilgan.

Kirish so'zlar: folklor raqlari, Xorazm raqsi, ustoz-raqqoslar, gul ufori, qo'l harakatlari, oyoq harakatlari.

Xorazm xalqining milliy raqs san'ati an'anaviy va juda qadimiy san'atdir. O'sib kelayotgan yosh avlod ong-u shuuriga ezgulik va nafosat, estetik-ma'naviy kamolotga muhabbat tuyg'ularini singdirishda o'zbek milliy raqs san'atining o'rni hamda ahamiyati beqiyos. Milliy raqlarda xalqimizning eng munavvar qadriyatlari, insoniy fazilatlari, milliy madaniyatni jahonga tanittira oladigan, millatni obrosini oshirishga hissa qo'sha oladigan san'at turi hisoblanadi. Avlodlardan-avlodlarga oltin meros bo'lib kelayotgan bu san'atda o'zbek xalqining o'ziga xos madaniyati, odatlari, moddiy va tabiiy boyliklari, jonivor va parrandalar hamda xalqimizning mehnat jarayondagi harakatlari ifodalangan. Bu san'at dastlab qo'shiq va so'z bilan bog'liq bo'lib, keyinchalik mustaqil san'at turiga aylangan. Raqs asrlar davomida takomillashib, barqaror shakllarga ega bo'lib borgan. Buning shakllanish jarayonida esa xorazmlik ustoz san'atkorlarimizning o'rni beqiyosdir.

Mashxur sozanda, raqqos Zarif Latipov 1914-yil 5-mart kuni Xiva tumanining Oqyop qishlog'ida jamoa xo'jaligi dehqon oilasida tug'ildi. Tabiatan sho'x Zarifboy yoshligidan masxarabozlik o'yinlariga qiziqqanligi bois Xiva

Modern education and development

bozoridagi qush sozandalar davrasini tomosha qilish uchun Xivaga kelguvchi edi. Xivaning musiqiy muhiti doston, suvora, xalfa qo'shiqlari maroqli aytishuvlari Zarifboyni san'at chamaniga yetakladi.

Bo'lg'usi san'atkor dastlab Xivadagi musiqa maktabida, keyinchalik 1930-33-yillarda Toshkentdagi Sharq musiqa texnikumida skripka sinfi bo'yicha ta'llim olgan. Uning mehnat faoliyati 1933-yilda Xorazm viloyat teatrida boshlangan. U dastlab ansamblida sozanda 1935-yildan to 1959-yilgacha Xiva kolxoz-sovxoz teatrda badiiy rahbar bo'lib ishlagan. 1959-yildan Viloyatda kolxoz-sovxoz teatrлari faoliyati tugatilgach, to 1974-yilgacha Xiva teatri asosida tashkil topgan xalq teatrda rejissor bo'lib ishlab kelgan. Zarif Latipovning baletmeyster, sifatidagi faoliyati O'zbekiston xalq artisti Komiljon Otoniyozov tashkil qilgan Xorazm ashula va raqs ansamblida, keyinchalik Toshhovuz, Shovot ansambllarida davom qilgan. 1951-yili Moskvada bo'lib o'tgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekadasida O'zbekiston xalq artisti Mahmudjon Safaev hamkorligida "Fozoni" yani "Sulgun" o'yinini sahnalashtirib Katta opera va balet teatri sahnasida Xorazm raqs san'atini namoyish qilganlar. Shu yili Zarif Latipov O'zbekiston Oliy Sovetining faxriy yorlig'i bilan mukofotlangan. Ustozi Safo akadan doira chalish san'atini o'rgangan, Zarif ota yaxshi doirachi ham bo'lган. Shogirdlaridan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar: Gavhar Matyoqubova, Malohat Matchanova, farzandlari San'at Ozod, Uktam, Obod, Latipovlar musiqani kasb qilib, hozirgi kunda shu sohada faoliyat ko'rsatmoqdalar.

U Maqom uforining barcha murakkab usullari formulalarini qayroq raqsining barcha asosiy shakllarini qo'llagan holda aniq ijro eta olardi, oyoq uchlarining ikki tomonga ochilish qobiliyati o'rtadan balandroq edi, mushaklarini sekin o'tirish va chuqur pliye paytlarida mohirona o'ynatar edi. O'sha-o'sha Maqomlarni erkin qo'llar usulida ijro etar ekan, u "asosiy" qo'l harakatlarining turli-tuman ko'rinishlarini shakllantirish imkoniyatlarini qo'llagan. Uning raqs-o'yini tez yugurishlar, oyoqlarni galma-galdan orqaga tashlash, keskin o'tirishlar va argoncha" usulidagi harakatlari bilan ajralib turgan. Buning ustiga Latif Zarifov Gul ufori guruhidagi raqslarni ham maromiga yetkazib ijro etardi.

Modern education and development

Ayniqsa, uning ijrosidagi raqs-masallar juda ta'sirchan chiqqan, ularda raqqos tasviriy-ruhiy harakatlar orqali betakror humor va bir vaqtning o'zida aktyorlik zavqi bilan jonivorlar va parrandalar dunyosining insonlarda uchraydigan qiliqlarini o'xshatar edi. Tustovuq o'yini shunday raqlarga misol bo'la oladi. Bu raqs juft bo'lib ijro etiladi: "raqiblar yuzma-yuz, cho'kkalagan holda xavotirli, asabiy sakrab-sakrab harakat qiladilar. Duelchilar ziyrak bo'lib turadilar, raqibning har bir harakati ikkinchisining ham javoban harakatini keltirib chiqaradi, bo'yin umurtqalari faol ishlab turadi. Mana, xo'rozlar to'qnashdi: cho'qqayib o'tirgan holda baland-baland sakrab, go'yo raqibini o'rabi olmoqchi bo'lgandek, davra bo'ylab harakatlanadi va davraning markazida yotgan doirani qo'lga kiritishga intiladi. Raqiblar doiraga tashlanib, uni ikki chetidan ushlab oladilar. Shunda doirani to'la qo'lga kiritish maqsadida turli chalg'ituvchi harakatlar boshlanadi. Doira membranasida tez aytishga o'xshab ketadigan ritmik frazalar chalinadi; bu tovushlar tuzilishi bo'yicha juda kulgili eshitiladi. Umuman raqsning akrobatikasi ham juda qiziq.

L.Zaripov tom ma'noda hayvonlar va parrandalar tashqi qiyofasi va xatti-harakatini raqs orqali ko'rsatib ijro etuvchi mahoratlri raqqos bo'lgan.

Xiva san'at mакtabida o'qituvchilik qilayotgan San'at og'a otasiga tortgan sho'x shinavanda insondir. Uning aytishicha: Otamiz juda hazilni sevadigan, sho'x kishi edilar. Bir kuni Komiljon Otaniyozovning uyida kiruvchi ustozlar tepada havoza kurib ishlab turgan ekanlar. Shunda Komiljon og'a "Zarif bularga bir gurung topib ber" debdilar. Otamizning "Novvot" degan kulguli bir gurungi bor edi. Otam shu latifani so'zlab yarmiga kelganda kulgasidan qornini tutib, ustalardan biri, uzini to'xtatolmay tepadan pastga yikilib tushibdi. "Tez yordam" mashinasida kelgan tabib? Nima bo'ldi? degan savoliga Komiljon og'a "Zarif manglayi ko'ra bir kuladigan gap topib bizlarni ustadan ayirvadi» deb javob bergen ekan. Jahonga tanilgan "Xiva vaktqi bilan soat 7" kinofilmning musiqaviy rahbari Zarif Latipov 1984-yili vafot etgan.

Ogahiy nomidagi Viloyat musiqali drama teatrining iste'dodli aktyori "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" Otamurod Bekchonov 1939-yili

Modern education and development

Xorazmning Qoravul qishlog‘ida tug‘ilgan. U Urganch tumani xalq havaskorlari ichidan san’atga kirib kelgan edi. Otamurod yoshligida radio-mantyor bo‘lgan, u simyog‘ochlarga chiqib kishilar xizmatida yurganida, uni hech kim yetuk san’atkor bo‘ladi deb o‘ylamagan. ZaU yoshligidan ulkan hofiz Ma’murjon Uzoqovga taqlid qilib aytgan “Bayot”, “Mustahzod” qo‘shiqlari barcha eshitgan tomoshabinlarga manzur bo‘lgan. Qo‘shiqlari bilan tuman va viloyat ko‘rik tanlovlarida qatnashib yurgan Otamurod Bekchonov “O‘zbekiston xalq artisti” Vahobjon Fayozovning e’tiboriga tushadi.

1957-yili Otamurod Bekchonov O‘zbekiston yoshlari bilan birga jahon yoshlari festivalida ishtirok etib, Toshkentda Gavharxonim Rahimova tashkil etgan Lazgi ansambliga ishga qabul qilinadi. Ansamblga 1958-yili vohaning sevimli san’atkori Komiljon Otaniyazov rahbar bo‘lib tayinlanadi. Otamurod Bekchonovga Lazgi ansambli ijodiy maktab bo‘ldi. San’at sirlarini mukammal o‘rganish uchun Otamurod Bekchonov 1960-yilda Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik san’ati institutining musiqali drama fakultetiga o‘qishga kiradi. U o‘qish bilan birga Muqimiyl nomli musiqali drama teatrida ishladi, teatr san’ati sirlarini o‘rgandi. Xorazm viloyati teatr san’atini rivojiga o‘zining ulkan hissasini qo‘sish uchun o‘zi tug‘ilib o‘sigan joyga borishni niyat qildi va o‘qishni muvaffaqiyatli tamomlab, teatrga ishga keldi, uni teatr jamoasi xursanchilik bilan kutib oldi. Teatrga keliboq “Gamlet”, “Qaroqchilar”, “Oy tutilgan tunda” kabi qator spektakllarda ajoyib obrazlar yarati. Teatrda obro‘-e’tibor topgan aktyor yanada yaxshiroq ishlashga intildi.

Butun qalbi bilan san’atga berilgan aktyor “Mindaugas”, “Abu Rayhon Beruniy”, “Ibn Sino” kabi qator spektakllarda yetakchi rollarni ijro etdi. Q.Matrizayevning “Mahtumquli” musiqali dramasida Mahtumquli obrazini yaratib, katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Otamurod Bekchonovning mehnatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlanib, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” unvoniga sazovor bo‘lgan. “Biz ajoyib ustozlarimiz bilan bir sahnada ijod qilib, ularning pand-nasihatlari bilan elning nazariga tushganmiz,-deydi “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist”-Komiljon Tojiboyev.

Modern education and development

Keyingi ustoz san'atkorimim Karim Ollaberganov 1904-yilda Xivada tug'ilgan. 6 yoshidan maktabga borib, savod chiqargan. Ustozi: Qodirbergan bola Olloberganov (1895-1920). Karim Olloberganov raqsga mehri o'zgacha bo'lgan. Raqs paytida qo'llari, tana yuqori qismining barcha mushaklari, oyoqlari faol harakatlanayotgan paytda tanasini harakatsiz tutib tutishni bilgan. Birdan to'xtab qoladi: Qayroq ikki marta shaqillagandan keyin raqqos sekin-asta tizzalarini bukib, o'tira boshlaydi. Tizzalar taxminan 70 gradusli burchak hosil qiladi, tovonlar o'rtasida biroz joy qoladi. Artist qanchalik pastroqqa cho'ksa, tovonlar shunchalik balandroq ko'tariladi. Qo'llar ham ikki tomondan yuqoriga ko'tarilib boradi, bittasi ko'krak oldida to'xtasa, ikkinchisi yuqoriga ko'tarilib ketadi, jarangdor ritmlar esa davom etaveradi. Yelkalar goh yumshoqqina, erinibgina titrab qo'yadi, goh kuchga to'lib-toshadi. Tana esa ikki tomonga tebranib turadi. Shu o'tirishda, ya'ni chuqur pliye holatida qayroq bir necha marta qarsillaydi, keyin sekin ko'tarilish boshlanadi, tana va qo'llar esa raqsdan bo'shamaydi. Karim Ollaberganov gul ufori raqsini boshqacha ijro etadi. Uning savlatli, ko'rinishi haykaltarosh ishlaganday tekis yuzi tanib bo'lmas darajada o'zgarib, ketadi.

Karim ota tizzalarini birlashtirgan holda cho'qqayib o'tirgan holda tanasining yuqori qismi, qo'llari, yelkalari, bo'yin umurtqalarini qimirlatadi, orqa, ko'krak va qorin mushaklari titraydi- bu harakatlarning har biriga mos yuzida ham mimika paydo bo'ladi va groteksni aniq ifodalaydi. Uning ijrosidagi "Pishak"-Mushuk: ochko'z, badqovoq, bezbet va maqtanchoq, mug'ombir-bir so'z bilan aytganda-kulgili, lekin qo'rqinchli, "qum pishik"-bilinar-bilinmas titraydi, qo'rqoq, bechorahol, lekin baribir kalamush kabi yirtqich. Shu harakatlar va imoshoralar orqali Xorazm raqs harakatlarini yaqqol namoyon qilgan.

Yana bir xorazmlik baletmeyster Marat Jumaboyevsiz Xorazm san'atini tasavvur qilish qiyin. Uning yaratgan raqlarini xalq orasida olqishlarga sazavor bo'lgan.

Marat Jumaboyev 1942-yilda Urganch tumanida tug'ilgan. Yoshligidan Xorazm raqlariga ishtiyoqmand bo'lib, tumandagi havaskor to'garaklariga

Modern education and development

qatnashib bayram tadbirlarda faol ishtirok etgan. U professional raqqos bo‘lib yetishib, bir qancha raqlarni mukammal sahnalashtirgan.

M.Jumaboyev 1975-yillardan so‘ng O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Xorazm viloyati bo‘linmasida bosh baletmeyster lavozimlarida faoliyat olib boganlar.

1980-1983-yillarda Respublika miqyosida o‘tkaziladigan “Marhabo talantlar” raqs festivalida Xorazm viloyati bosqichida folklor va bolalar raqsini xususan, “To‘yona” raqsini sahnalashtirib, respublika bosqichiga chiqib, faxrli ikkichi o‘rinni qo‘lga kiritganlar. 1988-90-yillarda Xorazm viloyati Kasaba uyushmasi qoshidagi ansamblida ham faoliyat yuritib ko‘pgina raqlarni sahnalashtirganlar.

Uning “To‘yona”, “Yigitlar”, “Uchrashuv”, “Orazibon”, “Ushlini ufori”, “Gusfand”, “Ufori navo”, “Sanam-o yuzingdan”, “Chag‘alloq”, “Qoraqalpoqcha, turkmancha” kabi ko‘plab raqlarni ommaviy tadbirlarga sahnalashtirgan.

U Urganch tumanidagi “Navbahor”, Yangiariq tumanidagi “Muborak”, “Orazibon”, “Doston” va boshqa ko‘plab ansambllariga raqs sahnalashtirib ularning faoliyatini yuksalishiga ham katta hissa qo‘shgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, yuqorida sanab o‘tgan ustozlarimiz o‘z raqlarida yashagan, ijod qilgan, hayotining mazmuniga aylanib qolgan raqs orqali ruhiy qalb iztiroblarini, aytolmagan dil kechinmalarini sahnada namoyon qila olgan. O‘z mehnati, iqtidori mahsuli professional darajadagi raqs ijrochilaridan ajralmasligi bilan Xorazm raqs maktabining namoyondalaridan biriga aylangan bo‘lsa ajab emas. Chunki ularning barmoq harakatlari, raqsdagagi plastik egilishlarining bajarilishini ko‘z ilg‘amas darajada mohirona, boshqalar o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan o‘ziga xos mahorat bilan ijro qilishi ustunlik bergen. Xorazm raqs maktabining jozibasi faqat yengil va tez harakatlarda emas, balki mohirona, ko‘z ilg‘amas aniq harakatlarda ekanligini isbotlay olgan, sahna madaniyatini anglay bilgan raqqoslarning sarasi bo‘lganligi bilan Xorazm raqsi tarixida alohida o‘rin egallashgan.

Modern education and development

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L.Avdeyeva, O‘zbek milliy raqs tarixidan, Toshkent, 2001,42 bet.
2. T.Qilichev- “Xorazm xalq teatri” T.2000-y 186b.
3. S.Sobirova, X.Solayev “Xiva bulbullari”-Xiva.2000-y.71b.
4. E.Saitova, N. Abraykulova. Xoreografiya va raqs san’ati asoslari. “Fan va texnologiya” nashriyoti. Toshkent 2015 y. 11-13betlar.